

TABIATNI MUHOFAZA QILISH

*O'zbekiston davlat tabiat muzeyi
Urmanova Umida Turg'unovna
Rasulov Azimjon Nozimjonovich*

Annotatsiya: Tabiatni muhofaza qilish — bu yer yuzidagi tabiiy resurslarni, ekosistemalarni va hayvonot dunyosini inson faoliyatining salbiy ta'siridan himoya qilish, ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan ishlar majmuasidir. Tabiatni asrab-avaylashning ahamiyati, tabiatdagi muvozanatni saqlash, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish va resurslarni kelajak avlodlar uchun saqlashda yotadi.

Kalit so'zlar: Tabiatni muhofaza qilish, ekologik barqarorlik, tabiiy resurslar, ekosistema, iqlim o'zgarishi, atrof-muhitni himoya qilish, barqaror rivojlanish, ekoturizm, tabiiy boyliklarni saqlash, ekologik ta'lim.

Аннотация: Охрана природы — это комплекс мероприятий, направленных на защиту природных ресурсов, экосистем и животного мира от негативного воздействия человеческой деятельности, а также на обеспечение их устойчивого развития. Важность охраны природы заключается в сохранении экологического баланса, борьбе с изменением климата и сохранении ресурсов для будущих поколений.

Ключевые слова: Охрана природы, экологическая устойчивость, природные ресурсы, экосистема, изменение климата, защита окружающей среды, устойчивое развитие, экотуризм, сохранение природных богатств, экологическое образование.

Annotatsion: Environmental conservation is a set of actions aimed at protecting natural resources, ecosystems, and wildlife from the negative effects of human activity, as well as ensuring their sustainable development. The importance of conservation lies in maintaining ecological balance, combating climate change, and preserving resources for future generations. Additionally, it is necessary to manage natural resources wisely, use them efficiently, and strengthen environmental education systems.

Keywords: Environmental conservation, ecological sustainability, natural resources, ecosystem, climate change, environmental protection, sustainable development, ecotourism, conservation of natural wealth, environmental education.

Bugungi kunda tabiatni muhofaza qilish butun dunyo mamlakatlari uchun dolzarb bo'lib qolmoqda. Sayyoramizda iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar va tabiiy resurslarning kamayishi insoniyatning yashash tarziga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanish, tabiatni inson manfaatlarini ko'zlab

ongli ravishda o'zgartirish mumkin emas, aks holda ekologik inqirozga yuz tutishimiz aniq. Shuning uchun xar birimiz tabiatni asrashni o'zimizdan ya'ni, o'z uyimizdan boshlashimiz kerak zero shunday qilsak ijobiy natijalarga erishamiz.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, dastlabki kunlardan boshlab, tabiatni muhofaza qilishga, respublika hududini ekologik tanazzuldan muhofaza qilishga kirishdi. Tabiatni va uning komponentlarini muhofaza qilish to'g'risida bir qancha qonunlar qabul qilindi. Bular "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" (1992-yil 9-dekabr), "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" (1993-yil 6-may), "Yer osti boyliklari to'g'risida" (1994-yil 23 sentabr), 2002-yil 12 dekabrda yangi tahrirdagi "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" (1996-yil 27-dekabr), "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" va "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" (1997-yil 26 dekabr), "Davlat kadastrlari to'g'risida" (2000-yil 15 dekabr), "O'rmon to'g'risida" (1999-yil 15-aprel), "Chiqindilar to'g'risida" (2000-yil 5-aprel)gi qonunlardir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50, 54, 55 va 100-moddalarida tabiatni muhofaza qilishga oid normalar bayon etilgan. Konstitutsiyaning 11-bobining 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlirlar", deb ko'rsatilgan.

55-moddasida "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir. Ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir", deyilgan. Mamlakatimizda "Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi" tashkil qilingan. 1996-yil 26 aprelda Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat ko'rsatadi. Qo'mita quyidagi vazifalarni bajaradi: atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash ustidan nazorat qilish; tabiatni muhofaza qilish faoliyatini tarmoklararo kompleks boshqarish; tabiatni muhofaza qilish hamda resurslarni tejash borasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish; atrofmuhitning ekologik holati qulay bo'lishini ta'minlash, ekologik vaziyatni boshqarish. O'zbekiston tabiatni muhofaza qilish sohasida bir qancha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi va dasturlarda, jumladan, [BMTning](#) atrofmuhit bo'yicha dasturi (YUNEP)da ishtirok etadi. YUNEP va ayrim rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikda biologik xilma-xillikni saqlashning milliy strategiyasi va 10 dan ortiq milliy ekologik qonunlar ishlab chiqildi.

1993-yil mart oyida [Qozog'istonning Qizilo'rda](#) shahrida [O'rta Osiyodagi](#) 5 davlatning Oliy darajadagi uchrashuvida Orol dengizi muammolari bo'yicha Davlatlararo kengash va uning ijroiya qo'mitasi hamda Orolni qutqarish xalqaro fondi tashkil etildi. Uning vazifasi Orol dengizi, uning sog'lom ekologik sharoitini tiklash, mazkur regionni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, hudud sanitariyagigiyena muxitini yaxshilashdir.

O‘zbekistonda 10 dan ortiq o‘rmon xo‘jaligi, 9 ta qo‘riqxona, 2 milliy bog‘, bir qancha buyurtma qo‘riqxona mavjud. Ularda tabiat yodgorliklari, kamayib ketgan o‘simlik va hayvonlar qo‘riqlanadi, o‘rganiladi va ko‘paytiriladi. O‘zbekistonda tabiatni muhofaza qilish respublika jamiyati, 12 ta viloyat va Qoraqalpog‘iston jamiyati, O‘zbekiston geografiya jamiyati, EKOSAN, bir qancha ilmiy ommabop va ilmiy jurnallar, radio va televideniya vaqtli matbuot Tabiatni muhofaza qilish haqidagi bilimlarni targ‘ib qilmoqda. Aholi o‘rtasida tabiat, undan oqilona foydalanish va muhofaza qilish haqidagi bilimlarni targ‘ib qilish, aholining geografik, ekologik madaniyatini ko‘tarish Tabiatni muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega. Tabiatni, uning boyliklarini muhofaza qilish, geografik ekologiya o‘quv kurslari o‘rta maxsus va oliy yurtlarining tabiatshunoslik mutaxassisliklari talabalariga maxsus kurslar sifatida o‘qitilmoqda.

Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishdan tabiatda ro‘y beradigan jarayonlarning o‘zaro bog‘likligi va rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi bilimlar katta ahamiyatga ega. Bu siz tabiiy jarayonlarga baho berish, ularni xisobga olish, tabiatga, tabiat komponentlariga ko‘rsatilgan har qanday ta’sirning kelajakda qanday oqibatlariga olib kelishini oldindan bilish mumkin emas. Inson tabiatdan foydalanganda va unga ta’sir ko‘rsatayotganda bilishi va faoliyatida amal qilish zarur bo‘lgan, asosan, 5 qonuniyat mavjud:

Tabiatdagi barcha komponent va elementlar o‘zaro bir-birlari bilan bog‘langan, o‘zaro ta’sir etib, muayyan muvozanatda bo‘lib, uyg‘unlik hosil qilgan. Biron komponent yoki element o‘zgarsa, butun tabiiy kompleksda o‘zgarish ro‘y beradi.

Tabiatda to‘xtovsiz modda va energiyaning aylanma harakati ro‘y berib turadi. Tabiiy jarayonlarning rivojlanishida muayyan davriyliklar mavjud (sutkalik, yillik, 12 yillik, 33-35 yillik va ko‘p yillik), zonalli, regionallik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2025 yilga “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili”, deb nom berilgani mamlakatning barqaror rivoji, ekologik vaziyatni yaxshilash yo‘lida muhim qadam sifatida qabul qilingan qarordir. Mazkur tashabbus yurtimizda ekologik muvozanatni tiklash, barqaror iqtisodiy rivojlanish va aholining hayot sifati yaxshilanishini ta’minlash yo‘lidagi sa’y-harakatlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Zero, tabiat insoniyatning eng bebaho boyligi bo‘lib, uni asrash jamiyatning rivojlanish darajasini belgilovchi muhim omillardandir.

2025 yilning Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili, deb e’lon qilinishi mamlakatimizning ekologik barqarorlikka bo‘lgan yondashuvini aks ettiradi. Bu tizim tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitga zarar yetkazmaslikni maqsad qiladi. O‘zbekistonning geografik joylashuvi va tabiiy resurslar salohiyatini hisobga olganda, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish imkoniyatlari juda keng. Mamlakatimizda quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha katta loyihalar amalga oshirilmoqda. 2025 yil davomida shamol energetikasi va

chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish rejalashtirilmoqda. “Yashil iqtisodiyot” O‘zbekistonda nafaqat ekologik muvozanatni tiklash, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiyotni yanada samarali qilish imkonini beradi.

“Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yili munosabati bilan Davlat dasturi ishlab chiqiladi. Ushbu yil davomida amalga oshiriladigan ishlar nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlaydi, balki aholining farovon hayot kechirishi uchun mustahkam asos ham yaratadi. .

Insonning tabiat bilan o‘zaro ta’siri jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish usullari mukammallasha borgan sari jadallashadi, tabiatdan, uning boyliklarini, qurilish va ishlab chiqarish texnikasi, aloqa vositalari yirik shaharlarni o‘zgartirib, yirik vohalar, madaniy landshaftlar yaratishga, hosildor ekin hamda mevalar, mahsuldor chorva mollari yetishtirishga imkon beradi. Lekin ba’zan chuqur o‘rganmasdan inson qudratiga ortiqcha baho berib, tabiatga ta’sir ko‘rsatish tabiatni foydalanib bo‘lmaydigan holatga, uning buzilishi va ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Bunday manzara insoniyatning butun tarixi mobaynida kuzatiladi. Pekin 19-asrgacha insonning tabiatdan foydalanish ko‘lami uncha katta bo‘lmagani uchun inson faoliyatining tabiatga ta’siri ham kamroq bo‘lgan.



Atrof-muhitni asrash faqat davlatning vazifasi emas, har bir fuqaroning burchidir. Har birimiz tabiatni sevib, uni himoya qilishda faol bo‘lsak, mamlakatimizni yashash uchun yanada qulay va ekologik xavfsiz yurtga aylantira olamiz. Bu esa farzandlarimizga sog‘lom va go‘zal kelajak qoldirishimiz uchun muhim asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun. 1992-yil 9-dekabr.
3. “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun. 1996-yil 27-dekabr.
4. G‘afurov Sh. “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
5. Karimov I.A. “Tabiat va inson” – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.

6. YUNEP – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit Dasturi rasmiy hisobotlari. www.unep.org
7. Xudoyberganov U. “O‘zbekiston geografiyasi va ekologiyasi”. – Toshkent: Fan, 2017.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yilga “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilish haqidagi farmoni. – www.president.uz
9. “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonun. 2000-yil 5-aprel.
10. Ekosan jamiyati materiallari va ekologik mavzudagi ommaviy axborot vositalari (jurnallar, radio, teleko‘rsatuvlar).